

KIMYO 9-SINF 1-5&

	SAVOL	JAVOB
1	Miloddan avvalgi 460—377- yillarda yashagan qaysi olim o‘simlik, hayvonlar va tabiiy minerallardan dorivor vositalar olishni bilgan?	Gippokrat
2	721—813- yillarda yashagan qaysi olim sulfat, nitrat kislotalarni va zar suvini olish usullarini yozib qoldirgan, novshadil spir tini aniqlagan va uning xossalarini o‘rgangan, oq bo‘yoq tayyorlash uslubini taklif qilgan, sirka kislotani haydash orqali tozalash usulini o‘rgangan?	Jobir ibn Hayyom (Gaber)
3	Jobir ibn Hayyomning qaysi kitobida metallar va minerallar haqida ko‘plab ma‘lumotlar berilgan?	“Yetmish kitob”
4	Ahmad al-Farg‘oniy (Alfraganus) o‘zining qaysi asarida ming yildan ortiq davr davomida suv ta‘siridan yemirilib ketmagan mashhur nilomer uchun tayyorlangan noyob qotishma tarkibini taklif etgan?	“Kitob amal ar-rahomat”
5	Qaysi olim birinchi bo‘lib kimyoviy moddalarni sinflarga ajratgan, turli kasalliklarni o‘simliklar bilan davolash haqida qimmatli tavsiyalarni yozib qoldirgan?	865—925- yillarda yashagan Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (Razes)
6	873—950- yillarda yashab ijod qilgan qaysi olimning ilmiy ishlari kimyo uslublarini rivojlanishiga sabab bo‘lgan?	Abu Nasr Forobiy
7	Abu Rayhon Beruniy o‘zining davrida ma‘lum bo‘lgan tog‘ jinslari, minerallar, metallar va ular asosidagi ko‘plab boshqa birikma, qotishma, hosilalarni o‘rganib, ularning xossalari haqida qaysi asarni yozgan?	“Mineralogiya”
8	Abu Rayhon Beruniy o‘zining qaysi kitobida mineral dorilar haqida fikr yuritgan?	“Kitob as-saydana”
9	Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) o‘zining qaysi asarlarida ko‘pgina kislota, ishqor, shifobaxsh moddalarning tibbiyot amaliyotida qo‘llanish holatlari haqida qimmatli ma‘lumotlarni keltirgan?	“Risolat al-iksir”, “Kitob ash-shifo”, “Tib qonunlari”
10	1997- yilda qaysi o‘zbek olimlari tomonidan “Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash” ixtisosligi kimyo fanlari tizimiga kiritildi?	I.R.Asqarov va T.T.Risqiyev
11	2017- yilda kim tomonidan “Tovarlar kimyosi” sifatida takomillashtirildi hamda OAK tomonidan tasdiqlandi?	Professor I.R.Asqarov
12	Qaysi olim IX asr oxiri X asr boshlarida moddalarni o‘simlik, hayvon va minerallardan olinishi asosida sinflagan?	Abu ar-Roziy
13	XVIII asrda nechta element ma‘lum bo‘lgan?	30 ga yaqin
14	XIX asrda nechta element ma‘lum bo‘lgan?	60 dan ortiq
15	Qaysi olim 1620- yilda erituvchilarni suvli, kislotali, yog‘li sinflarga ajratdi?	A.Sala
16	Qaysi olim 1718- yilda moddalarning o‘xshashlik jadvalini tuzdi?	E.Joffrua
17	Elementlarni sistemalashtirish muammosini qaysi olim muvaffaqiyatli hal qildi?	1869- yilda rus olimi D.I.Mendeleyev
18	X- (rentgen) nurlarini qaysi olim kashf etgan?	1895- yilda nemis olimi V.Rentgen
19	Radiktivlikni qaysi olim kashf etgan?	1896- yilda fransuz olimi A.Bekkerel

20	Elektronni qaysi olim kashf etgan?	1897- yilda ingliz olimi J.Tomson
21	Atom yadrosi zaryadining elementning davriy sistemadagi tartib raqamiga tengligini qaysi olim aniqlagan?	1913- yilda ingliz olimi D.Mozli
22	Yadro tuzilishi proton-neytron nazariyasini qaysi olimlar yaratgan?	1932- yilda rus olimlari D.D.Ivanenko va E.N.Gapon hamda nemis olimi V.Geyzenberg
23	Elektronning massasi qanday qiymatga ega?	$9,1 \cdot 10^{-31}$ kg
24	Elektronning zaryadi qanday qiymatga ega?	$1,6 \cdot 10^{-19}$ C (kulon)
25	Har qanday elementning elektron qobig'i soni nimaga teng?	Element joylashgan davr raqamiga
26	Davriy sistemada qanday turdagi dekadalar mavjud?	Sc—Zn, Y—Cd, La—Hg, Ac—Cn
27	Elementlarning metallik xossalarini solishtirish uchun qaysi kattalik qo'llaniladi?	Ionlanish energiyasi - I
28	Elektronning atomdan ajralishi uchun zaruriy energiya miqdori nima deb ataladi?	Ionlanish energiyasi - I
29	Ionlanish energiyasi birligi qanday ifodalanadi?	eV/atom
30	Metallmaslik xossalarini (elektron biriktirib olish imkoniyatini) solishtirish uchun qaysi kattalik qo'llaniladi?	Elektronga moyillik
31	Neytral atomga bitta elektronning birikishi natijasida ajraladigan yoki yutiladigan energiya miqdori nima deb ataladi?	Elektronga moyillik - E
32	Elektronga moyillikning birligi qanday ifodalanadi?	eV/atom
33	Atom yadrosi qanday zarrachalardan tashkil topgan?	Proton va neytron
34	Protonning a) zaryadi, b) massasi qanday qiymatga ega?	a) +1; b) 1 m.a.b
35	Elektronning a) zaryadi, b) massasi qanday qiymatga ega?	a) -1; b) 0
36	Neytronning a) zaryadi, b) massasi qanday qiymatga ega?	a) 0; b) 1 m.a.b
37	Energetik pog'onadagi elektronlar soni qaysi formula bilan aniqlanadi?	$2n^2$
38	Pog'onachalardagi elektronlar soni qaysi formula bilan aniqlanadi?	$2 \cdot (2l + 1)$
39	Kimyoviy bog'lanishdagi qaysi xususiyat molekulaning fazoviy strukturasi, shaklini belgilaydi?	Bog' yo'nalganligi
40	Kimyoviy bog'lanishdagi qaysi xususiyat bog' o'qi atrofida umumiy elektron juftining taqsimlanishi asimmetriyasi bilan belgilanadi?	Bog' qutbliligi
41	Kimyoviy bog'lanishdagi qaysi xususiyat atomlarni bog'lab turuvchi elektron juftlar soni bilan aniqlanadi?	Bog' karraligi
42	Kimyoviy bog'lanishdagi qaysi xususiyat atom yadrolari orasidagi masofaning muvozanat holati (nm larda o'lchanadi) bilan aniqlanadi?	Bog' uzunligi
43	Kimyoviy bog'lanishdagi qaysi xususiyat bog'ni uzish uchun bajariladigan ishga teng (kJ/mol larda o'lchanadi)?	Bog' energiyasi
44	Kimyoviy bog'lar hosil bo'lishi qanday jarayon?	Ekzotermik
45	Kimyoviy bog'lar uzilishi qanday jarayon?	Endotermik
46	Kimyoviy bog'lanishning qanday turdagi asosiy tiplari mavjud?	Kovalent, ion, metall, vodorod
47	Atomlarning umumiy elektron juftlar yordamida bog'lanishi nima deb nomlanadi?	Kovalent bog'lanish
48	Kimyoviy element atomining kimyoviy bog'lanishda ishtirok etayotgan umumiy elektron juftlarni o'ziga	Elektrmanfiylik

	tortish xususiyati nima deb ataladi?	
49	elektrmanfiylik qiymati bir xil bo'lgan atomlar orasidagi kovalent bog' qanday nomlanadi?	Qutbsiz kovalent bog'
50	Elektrmanfiyliklari qiymati turlicha bo'lgan atomlar orasidagi kovalent bog' qanday nomlanadi?	Qutbli kovalent bog'
51	Atomlar elektron biriktirishi yoki yo'qotishidan hosil bo'lgan zarralar nima deb ataladi?	Ionlar
52	Ionlardan hosil bo'lgan birikmalar nima deb ataladi?	Ion birikmalar
53	Ionlar orasidagi bog'nima deb ataladi?	Ion bog'
54	Elektronlar berish jarayoni nima deb ataladi?	Oksidlanish
55	Elektronlar qabul qilish jarayoni nima deb ataladi?	Qaytarilish
56	Ion bog'lanishli birikmalar odatdag i sharoitda qanday agregat hoatda bo'ladi?	Qattiq
57	Elektromanfiy (metallmas) atomlarning vodorod atomlari orqali, aniqrog'i, proton orqali bog'lanishi nima deb ataladi?	Vodorod bog'lanish
58	Qaysi moddalar vodorod bog'lanishga misol bo'ladi?	Suv, suyuq ammiak, suyuq vodorod fluorid
59	Ma'lum element atomining qat'iy belgilangan sondagi boshqa element atomlari bilan birika olish imkoniyati nima deb ataladi?	Valentlik
60	Atom ionga aylangan holda (ya'ni umumiy elektron jufti kuchli elektrmanfiy atom tomonga to'la yoki qisman siljigan holda) molekuladagi atomda hosil bo'luvchi shartli zaryad nima deb ataladi?	Oksidlanish darajasi
61	Bir xil atomlardan hosil bo'lgan molekulalardagi atomlarning oksidlanish darajasi qanday qiymatga ega?	Nol (0)
62	Vodorod a) metall gidridlarida, b) qolgan barcha birikmalarida qanday oksidlanish darajasiga ega?	a) -1; b) +1
63	Kislorod a) ko'pchilik birikmalarda, b) ftorli birikmalarda, c) peroksidlarda	a) -2; b) +2 c) -1
64	Ftor barcha birikmalarida qanday oksidlanish darajasini namoyon qiladi?	-1
65	Ishqoriy metallar barcha birikmalarida qanday oksidlanish darajasini namoyon qiladi?	+1
66	II guruh bosh guruhcha elementlari barcha birikmalarida qanday oksidlanish darajasini namoyon qiladi?	+2
67	Elementning eng yuqori oksidlanish darajasi nimaga teng?	Davriy sistemada joylashgan guruh raqamiga
68	Moddalar elektr tokini o'tkazish yoki o'tkazmasligiga qarab qanday guruhlarga ajratiladi?	Elektrolitlar va noelektrolit
69	Eritmalari yoki suyuqlanmalari elektr tokini o'tkazadigan moddalar nima deb ataladi?	Elektrolitlar
70	Elektrolitlarga nimalar kiradi?	Suvda eriydigan kislotalar, ishqorlar va tuzlar
71	Eritmalari yoki suyuqlanmalari elektr tokini o'tkazmaydigan moddalar nima deb ataladi?	Elektrolitmaslar (noelektrolitlar)
72	Noelektrolitlarga nimalar kiradi?	Qutbsiz kovalent bog'lanishli moddalar hamda metan, karbonat anhidrid, shakar, spirtlar va distillangan suv
73	Ion bog'lanishli birikmalarning suvda eritilganda ionlarga ajralishiga nima deyiladi?	Dissotsiatsiya
74	Musbat zaryadlangan ionlar elektr manbaining qaysi	Manfiy zaryadlangan katodga

	qutbiga tomon harakatlanadi?	
75	Manfiy zaryadlangan ionlar elektr manbainig qaysi qutbiga tomon harakatlanadi?	Musbat zaryadlangan anodga
76	Dissotsiatsiyalanganda kation sifatida faqat vodorod ioni hamda kislota qoldig'i anionini hosil qiladigan murakkab moddalar nima deb ataladi?	Kislota
77	Dissotsiatsiyalanganda anion sifatida faqat gidroksid ioni (OH-) hamda metall kationini hosil qiladigan murakkab moddalar nima deb ataladi?	Asoslar
78	Dissotsiatsiyalanganda metall kationi bilan kislota qoldig'i anioni (nordon tuzlarda vodorod kationi ham) hosil qiladigan murakkab moddalar nima deb ataladi?	Tuzlar
79	Dissotsiatsiyalangan molekularlar sonining erigan modda molekularining dastlabki soniga nisbati nima deb ataladi?	Dissotsiatsiyalanishi darajasi
80	Dissotsiatsiyalanish darajasi qanday qiymatlarda ifodalanadi?	0 dan 1 gacha bo'lgan birliklarda yoki 0 dan 100 % gacha
81	Dissotsiatsiyalanish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan elektrolitlar nima deb ataladi?	Kuchli elektrolitlar
82	Dissotsiatsiyalanish darajasi suyultirilgan eritmalarida ham kichik qiymatga ega bo'lgan elektrolitlar nima deb ataladi?	Kuchsiz elektrolitlar
83	Elektrolitning dissotsiatsiyalanish konstantasi nimaga bog'liq?	Elektrolit va erituvchi tabiatiga hamda haroratga